

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ERTAKLAR ORQALI
AXLOQIY TARBIYA BERISH

Xolmirzayeva O'g'uloy Murotali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim” kafedrası stajyor-o'qituvchisi

G'aniyeva Sevinch Sherali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehri sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Ertak hayot haqiqatining hayotiy va xayoliy uydirmalar asosida tasvirlangan tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi qahramonlarning g'ayri tabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertak janri obrazlar talqini g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar sehri ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali ta'lim muhitini yaratish bolalarning kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *qahramon, axloq, odob, ertak, bola, ezgulik, yovuzlik, ong, rivojlanish,*

АННОТАЦИЯ: *Сказка — один из основных жанров устного народного поэтического творчества, этическое произведение о волшебных приключениях и повседневной жизни, основанное на фактуре и вымысле. Сказки отличаются от других жанров фольклора тем, что они отображают реальность жизни, основанную на реальном и вымышленном вымысле,*

основаны на заклинаниях и магии, происходят в фантастических и необычайных обстоятельствах, а также на неестественной смелости персонажей. Жанр сказки условно делится на сказки о животных, сказки о быте и юмористические сказки в зависимости от трактовки образов, идейного содержания и конфликта, сюжета и композиции, роли и функции повествования, языка и стиля.

Ключевые слова: *герой, мораль, этикет, сказка, ребенок, добро, зло, сознание, развитие,*

ANNOTATION: *A fairy tale is one of the main genres of folk oral poetic creativity, a magical adventure and epic work of everyday character based on fabric and fiction. A fairy tale differs from other genres of folklore in that it depicts the reality of life on the basis of real and imaginary fiction, is based on spells and magic tools, and takes place in fantastic and unusual situations, with the unnatural courage of the heroes. The fairy tale genre is conditionally divided into fairy tales about animals, fairy tales, household tales, and comic tales, according to the interpretation of images, ideological content and conflict, plot and composition, the role and function of the stories, language and style.*

Keywords: *hero, morality, etiquette, fairy tale, child, goodness, evil, consciousness, development,*

Kirish. Bolaga tarbiya berish murakkab jarayon hisoblanadi. Lekin bola umri davomida oladigan bilimning 70 foizini 5 yoshigacha oladi. Aslida bolani diqqatini 5 daqiqagina jamlash mumkin. Ularning kun davomidagi faoliyatining 2/3 qismini o'yin tashkil etadi. Qolgan qismi esa uyqu, ovqatlanish vaqti va mashg'ulotlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun bolaga bizlar turli o'yin va ertaklar orqali tarbiya berishingiz lozim. Ertak tanlashda yosh xususiyatlarini, kayfiyatini va qulay vaqtini hisobga olgan holda ertak tanlash lozim. 2 yoshdan 5 yoshgacha asosan hayvonlar qatnashgan erkaklarni masalan "Bo'g'irsoq", "Laylak va tulki", "Echki va uning bolalari" kabi ertaklarni so'zlab bersak anchagina natijaga erishgan bo'lamiz.

Chunki bu yosh davrda bola yaxshi va yomon, ezgulik degan tushunchalarni yaxshi tushunmaydi. Ular faqatgina shu ertak qahramonlarining ovozigacha yurish turishiga taqlid qiladi. 5 yoshdan 7 yoshgacha esa "Zumrad va Qimmat", "Uch og'ayni botirlar", "Kenja botir" kabi erkaklarni aytib bersak bola jasurligi, mehnatsevarlik, adolat kabi tushunchalarni tushunadi va bu tushunchalar bolada shakllanadi. Bu yoshda bolada bitta ertakni qayta-qayta eshitishni yoqtirishadi. Biz bunga qarshilik qilmasdan, ularning istagini inobatga olgan holda shu ertak qahramonlarini rasmini chizdirsak ular bundan ko'proq ma'lumot olishadi. Ertak tanlashda ertak kitob suratlariga ham alohida e'tibor bering, chunki rang barang suratlar bolada qiziqish uyg'otadi va e'tiborini jalb qiladi. Shuningdek ertak qahramonlarini suratlar orqali tanishtirib bersa bola bu ertakni tushunishini, ko'z xotirasida ham ongida ham muhrlanib qoladi.

Bolani ijobiy yo'lga boshlovchi ertaklarni ko'proq o'qib bering. Chunki salbiy ertaklar bola ongida turli salbiy hislatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan bolaga o'rmon hayotini hikoya qiluvchi ertak aytsak bola o'rmon shohi sherga taqlid qilishi va tengdoshlaridan o'zini birmuncha baland deb hisoblab tengdoshlari o'rtasida kelishmovchilikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun bolaga sherning ko'proq yaxshi tomonlarni qo'rqmasligini, jasurligi kabi ijobiy hislatlarni bolaga tushuntirish lozim. Bola asosan ertak va real hayotni solishtirib ko'radi. Bilasizmi ertaklar faqat yaxshilik bilan tugaydi.

Ertakdagi salbiy roldagi qahramonlar oxirigacha borolmaydi yoki turli to'siqlarga duch keladi. Ertakda yomonlik doim qoralangan. Bola shuning uchun ham real hayot bilan ertakni solishtirganda salbiy qahramonlar yo'lini tanlashni xohlamaydi va real hayotda ham ijobiy yo'ldan ketishga harakat qiladi. Ertakni jamoa qilib so'zlab berish ham foydali hisoblanadi. "Bu jarayonda asosan bolalarning muloqotga kirishishi va ijtimoiylashuvi tezlashadi. Bolalar obrazlardan, tasavvurlardan foydalanmay, mustaqil ravishda so'zlar orqali tafakkur qila olishlari uchun ular voqelikdagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlarini aks ettiradigan tushunchalarni o'zlashtirishlari kerak." [9]

Ertak aqlga va yurakka ta'sir ko'rsatadi. Aqlni yetuk qilsa, yurakni esa hissiyotchan qiladi. Barchamiz bolalarimizni qo'rqmas, kuchli, odobli, axloqli bo'lib ulg'ayishini xohlaymiz. Bola bunday bo'lib ulg'ayishi uchun aqlan salohiyatini o'stiradigan ertaklardan foydalansak bo'ladi. Bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o'yinlar, o'yinchoqlar, bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to'g'rilasa bo'ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. To'g'ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar – qo'rquv, inijlik kabilarni yo'qotish, bolada qat'iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi.

Xulosa. Bolalarni odobli, axloqli, ezgu niyatli pok qilib tarbiyalashni xohlasangiz bolalarga ko'proq ertak aytib bering. Bolalar qo'lga telefon emas balki kitob bering. Garchi u o'qishni bilmasa ham kitob suratlari orqali ham tarbiyalanadi. Telefon, noutbuk, planshet kabilar bola ongini zaharlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Hoshimov. Bolalar adabiyoti va ertaklar psixologiyasi "Ma'naviyat" 2018y.
2. S. Qodirova Ertaklar orqali bolalarga axloqiy tarbiya berish metodikasi "O'qituvchi" nashriyoti. 2020 y.
3. T. Alimova. Bolalarning axloqiy tarbiyasida ertaklarning o'rni "Ma'rifat" 2019y
4. R. Yusupova. Maktabgacha ta'limda ertaklardan foydalanish "Yosh kuch" 2021
5. L. Toshmatova Ertaklar va bolalarning ruhiy dunyosi "Kamalak" 2017 y.
6. N. Karimova Bolalar adabiyoti: nazariya va amaliyot "O'zbekiston" 2022 y.
7. M. Rahmonova Ertaklar orqali axloqiy tarbiya "G'afur G'ulom" 2020 y.
8. A. Ismoilova. Bolalar psixologiyasi va ertaklar "Fan va texnologiya" 2021 y.
9. O'.M.Xolmirzayeva. "Ilm-fan va tabiat markazidata'limiy faoliyatni tashkil etish usullari". Navoiy ilmiy-amaliy konferensiya. 2025 y. 313-315-b.